

“Kelajak soati” darsining 5-8-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:
24-mavzu: “Bir yaxshilik haqida”

Umumiy maqsad: O‘quvchilarda yaxshilik qilish odati, mehr-oqibat, hamdardlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirish; ularga eng oddiy va kichik ezgu ish ham katta ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkinligini anglatish, yaxshilik qilish orqali jamiyatda ijobiy muhit yaratilishini tushuntirish.

Annotatsiya. Mazkur darsda o‘quvchilarga yaxshilik qilishning insoniy va ijtimoiy ahamiyati haqida tushuncha beriladi. Kichik bir ezgu ish ham katta ijobiy natijalarga olib kelishi mumkinligi haqida hayotiy misollar orqali tushuncha beriladi. Dars davomida o‘quvchilar o‘zlari yoki boshqalarning qilgan yaxshi ishlari haqida fikr almashadilar, yaxshilikni odatga aylantirish va uni boshqalarga o‘rnak qilib ko‘rsatish zarurligini anglaydilar. Mashg‘ulot o‘quvchilarda ijtimoiy faollik, mas’uliyat va insonparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Aniq maqsadlar:

O‘quvchilarga “yaxshilik”, “ezgulik”, “mehr-oqibat” kabi tushunchalarning mazmuni va ahamiyatini tushuntirish.

Kichik yaxshiliklarning katta ijobiy natijalarga olib kelishi mumkinligini hayotiy misollar orqali yoritib berish.

O‘quvchilarda o‘z hayotida kuzatgan yaxshi amallar haqida, erkin fikr bildirish ko‘nikmasini shakllantirish.

Yaxshi ishlarning ijtimoiy tarbiyada tutgan o‘rnini anglatish.

O‘quvchilarda yaxshilik qilishga ichki ehtiyojni uyg‘otish, bu orqali ijobiy fazilatlarni rivojlantirish.

Asosiy g‘oya:

Har bir inson qilgan kichik yaxshilik ham boshqalarning hayotida katta ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin; yaxshilik qilish – bu faqat ezgulik emas, balki jamiyatni yanada go‘zalroq qilish yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir.

Kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchaviy darajada:

O‘quvchilar “yaxshilik”, “ezgulik”, “mehr-oqibat” kabi tushunchalarning ma’nosini anglaydi va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntira oladi.

Hayotda ko‘rsatilgan oddiy yaxshiliklar ham katta ijobiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkinligini anglaydi.

Yaxshi amallarni nafaqat bajarish, balki boshqalarga o‘rnak qilib ko‘rsatish zarurligini tushunadi.

Yaxshilik qilish orqali mehribonlik, hamdardlik, saxiylik kabi insoniy fazilatlarning rivoj topishini tushunadi.

O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, mantiqiy asoslangan tarzda bayon qila oladi, dalillar keltirib, o'z nuqtayi nazarini ifoda etadi.

2. Hissiy va qadriy yondashuvda:

O'quvchilarda yaxshilik qilishga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi.

Ezgulik, mehr-oqibat, saxovat kabi insoniy qadriyatlarni qadrlay boshlashadi.

O'zgalar dardiga befarq bo'lmaslik, yordam berishga tayyor turish kabi his-tuyg'ularni chuqur his etishadi.

Yaxshi amallar orqali jamiyatga foydali bo'lish mumkinligini ichki e'tiqod darajasida anglashadi.

O'quvchi o'zida kichik bo'lsa-da, foydali bo'lgan biror yaxshi ish qilishga ichki ehtiyojni sezadi va unga intiladi.

3. Amaliy ko'nikmalar darajasida:

O'quvchilar hayotda uchragan biror yaxshilik holatini og'zaki yoki yozma tarzda bayon qila olishadi.

Yaxshi amallar haqida insho, hikoya yoki lavha yozish ko'nikmasini namoyon etishadi.

Dars davomida o'z fikrlarini mantiqiy asoslab, erkin ifoda etishadi.

Jamiyatda va oila, maktabda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan oddiy yaxshilik ishlarini rejalashtirishadi.

Kichik guruhlarda yoki juftlikda ishlash orqali hamkorlikda fikrlash, tinglash va fikr almashish ko'nikmalarini rivojlantirishadi.

O'zi va boshqalar qilgan yaxshiliklarni baholay olishadi, ijobiy xulq-atvorni anglab, unga amal qilishga harakat qilishadi.

4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

O'quvchilar jamiyatda yaxshilik qilishning muhimligini anglaydilar, ularda ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usi shakllanadi.

Jamiyatdagi boshqa insonlar bilan munosabatlarda mehr-oqibat va hurmatni amaliyotda qo'llashga intiladilar.

O'quvchilarda, kichik jamiyat guruhlarida (oilalar, sinf, mahalla) hamkorlik va yordam ko'rsatish madaniyati rivojlanadi.

Yaxshilik va ezgulikni avlodlarga yetkazishni, ijtimoiy qadriyatlarga hurmat ko'rsatishning ahamiyatini qadrlashadi.

Jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarga o'zining hissasini qo'shish uchun faol ishtirok etish istagi shakllanadi.

O'quvchilar boshqalar bilan munosabatda do'stlik, ishonch va yordam ko'rsatish tamoyillariga amal qiladilar.

Metapredmet yondashuv:

Tarix: O‘quvchilar tarixiy voqealar va shaxslar misolida yaxshilik va ezgulik qadriyatlarining jamiyatda qanday rivojlanganini o‘rganadilar, tarixiy tajriba orqali ijtimoiy mas’uliyatni anglaydilar.

Adabiyot: O‘zbek adabiyoti va xalq og‘zaki ijodidagi yaxshilik haqidagi asarlar, ertak va dostonlar orqali axloqiy qadriyatlarni tahlil qiladilar, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Tarbiya: Mehr-oqibat, saxiylik va yordam ko‘rsatish kabi ijtimoiy qadriyatlarni amalda qo‘llashga undaydigan tarbiyaviy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi.

Media savodxonlik: Yaxshilik haqida ijtimoiy tarmoqlar va internetdan foydalanib loyiha yaratish, axborotni tahlil qilish va taqdim etish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.
www.milliytarbiya.uz

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan shakl: bilim beruvchi suhbat, o‘yin elementlari, videolavha va qo‘shimcha materiallar.

KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

O‘qituvchi: Assalomu alaykum, aziz o‘quvchilar!

Bugungi sizlar bilan juda oddiy tuyulsa ham, aslida juda muhim bir mavzu haqida suhbatlashamiz.

Bugungi mavzuyimiz – yaxshilik haqida.

Doskaga yoki monitorga quyidagi surat chiqariladi.



O‘qituvchi: Bu suratdagi kim?

O‘quvchilar: Krishtianu Ronaldu!

O‘qituvchi: Barakalla! Krishtianu Ronaldu intervyularida hayotidan qiziq bir voqea keltiriladi. Uning aytishicha, bolaligida oilasi juda kamtarona sharoitda yashagan. Mashg‘ulotlardan keyin u va do‘stlari ba‘zan och qolishgan va fast-fud sotadigan restoran yonida hech bo‘lmasa burgerlarning hidini hidlash uchun aylanib yurishgan. Shunda restoran xodimlari, ofitsiant qizlar ularga kartoshka-fri va burgerlar olib chiqib berishgan.

O‘sha paytda bolalar uchun juda katta yaxshilik bo‘lgan.

Ronaldu yillar o‘tib, dunyoga mashhur futbolchiga aylangach, o‘sha insonlarni minnatdorlik bilan eslab gapirgan.

Yaxshilik shunaqa: uni qilgan odamlar yoki tashqaridan qarab turganlar uchun juda oddiy, oson ish bo‘lsa ham, ammo uni qabul qilib olgan odam uchun bu juda katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Aslida, bunday voqealar faqat Ronaldu hayotida emas, ko‘plab insonlarning hayotida ham bo‘lgan. Keling, hozir shunday hayotiy misollardan ayrimlarini videolavha orqali ko‘ramiz.

Vizual kontent

Yaxshilik hikoyalari (1-qism)

https://youtu.be/irG_9C8WCr8

O‘qituvchi: Videodagi qaysi voqea sizga eng ishonarli tuyuldi? Agar shu vaziyat siz bilan sodir bo‘lsa, qanday reaksiya qilar edingiz?

O‘quvchilarning javoblari tinglanadi.

O‘qituvchi (*chuqurlashtiruvchi savol*): Sizningcha, nega kichik yaxshiliklar inson xotirasida uzoq saqlanadi?

O‘quvchilarning javoblari tinglanadi.

O‘qituvchi: Kim oxirgi 1 hafta ichida birovdan yordam olgan bo‘lsa, yoki kimlarga kichik yaxshilik qilgan bo‘lsa, qo‘l ko‘tarsin.

(Sinf jonlanadi).

O‘qituvchi: Nega bu ish (hodisa) siz uchun muhim bo‘ldi?

O‘quvchilarning javoblari tinglanadi.

O‘qituvchi: Tasavvur qiling, sinfda kimdir yangi kelgan, shuning uchun biroz tortinchoq yoki shunchaki bugun kayfiyati yo‘q. Uning atigi bir kunini o‘zgartirish, ya’ni esida qoladigan yaxshi kunga aylantirish uchun nima qilish mumkin?

O‘quvchilarning javoblari tinglanadi.

O‘qituvchi: Demak, yaxshilik – har kuni uchraydigan real vaziyat, real tanlovdir.

Endi keling, yaxshilik deganda nimani tushunamiz va uning inson hayotidagi o‘rni haqida batafsilroq gaplashamiz.

ASOSIY QISM (30 daqiqa)

O‘qituvchi: Biz hozirgina mashhur insonlar hayotidagi qiziq voqealarni ko‘rdik. Aslida, yaxshilik qilish uchun mashhur bo‘lish ham, boy bo‘lish ham, alohida imkoniyat ham shart emas.

Yaxshilik – bu avvalo munosabat. Bu insonning boshqasiga bo‘lgan e’tibori, tushunishi, yordam berishga tayyorligidir. Ba’zan bitta so‘z ham yaxshilik bo‘lishi mumkin. Ba’zan oddiy qo‘llab-quvvatlash ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Bilasizlarmi, yaxshilik qilish insoniyat paydo bo‘lganidan beri bor odat. Ammo bizning ajdodlarimiz buni umummilliy g‘oya darajasiga ko‘tarishgan. Xalqimizda bu haqida ko‘p maqollar bor: “Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘”,

“Daryoga yaxshilik qilsang, ajrini biyobondan topasan” degan maqollar ko‘p. Ertaklar-u dostonlarimizda ham yaxshilik haqida hikoya qilinadi.

Ajdodlarimiz mehr-oqibat, saxovat, yordam, hamdardlikni insoniylik mezonini deb bilgan. Keling, bu haqda qisqa videoni ko‘ramiz.

Vizual kontent

Ajdodlarimizdan qolgan yaxshiliklar tarixi

<https://youtu.be/iFiRqT40U1U>

O‘qituvchi: Demak, yaxshilik – bu biz uchun yangi tushuncha emas. Bu madaniyatimizda, tariximizda, qadriyatlarimizda mavjud bo‘lgan fazilat.

Yaxshilikning yana bir muhim jihati bor. Bu – minnatdorlik, ya’ni yaxshilikni qadrlash, uni unutmaslik haqida gap bormoqda.

Hayotda kimdir sizga yordam berdimi – bu oddiy holat emas. Bu insonlar o‘rtasidagi ko‘rinmas, lekin juda kuchli bog‘lanishdir.

Ba’zan yaxshilikni faqat olish bilan cheklab qo‘yamiz. Aslida esa yaxshilikning juda muhim qonuniyati bor: yaxshilik – bu ma’naviy qarz.

Agar sizga yaxshilik qilindimi, demak, bir kun kelib siz ham kimningdir hayotida shunday rol o‘ynashingiz mumkin. Bu – zanjir, davomiylik, ezgulikning uzilmas oqimidir.

Kelinglar, hozir sizlarga shunday yaxshilik qilib, maktab qurgan tadbirkor haqida aytib beraman. Namanganlik tadbirkor Jobirxon Kamoliddinov milliy ma’rifatga qo‘shayotgan hissasi uchun “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi. Unga mukofotni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev topshirdi. Jobirxon Kamoliddinov Namanganda 1000 o‘rinli zamonaviy maktab qurgan. Shuningdek, o‘zi ta’lim olgan Namangan shahridagi 3-maktabni ham tubdan ta’mirlab, viloyatdagi zamonaviy maktabga aylantirdi. Keling, hozir ushbu maktabdan tayyorlangan lavhani tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Namanganda tadbirkor tomonidan ta’mirlangan maktab

<https://youtu.be/4CAxTdxG8PU>

O‘qituvchi: Har bir inson o‘z imkoniyatlari darajasida ko‘proq yaxshilik qilishiga ushbu maktab yorqin misol bo‘ldi. Bu nafaqat ta’lim dargohi, balki yaxshilikka qo‘yilgan bir yodgorlik ham bo‘ldi. Endi kimki bu maktab haqida gapirsa, albatta, uning xayriya qilib qurib berilganini eslaydi va yaxshilik qilish haqida o‘ylaydi.

Pauza.

O‘qituvchi: Bugungi kunda ham yurtimizda insonlar hayotini yaxshilash, inson qadrini ulug‘lash, qulay sharoit yaratish, ta’lim, ijtimoiy himoya, infratuzilma sohalarida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Mana kuni kecha AQSh prezidenti Donald Tramp ham bizdagi islohotlarni maqtab, Prezidentimizga: “Sizlarda hammasi zo‘r ketyapti” dedi. Bular bari hurmatli Prezidentimizning inson qadrini ulug‘lash siyosati tufayli bo‘lyapti.

Keling, shu haqidagi videolavhani tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Yaxshilik va inson qadri

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/415

O‘qituvchi: Demak, yaxshilik faqat alohida insonlar emas, balki jamiyat taraqqiyotida ham muhim o‘rin tutadi. Ammo eng muhim nuqta shuki: davlatimiz rahbari hurmatli Shavkat Mirziyoyev yaxshilik, xayr-saxovat va ezgulikni davlat siyosati darajasiga ko‘tardilar.

Har bir kichik yaxshilik insonlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. Har bir ezgulik atrof-muhitni yanada iliqroq qiladi. Har bir mehr kimningdir kayfiyatini, qarorini, hatto kelajagini o‘zgartirishi mumkin.

Yaxshilik – bu favqulodda hodisa emas. Bu har kuni uchraydigan tanlov. Eng muhimi – uni har kim qila oladi.

O‘yin: “Yaxshilik auksioni”

G‘oya: *Yaxshilikning qiymati pul bilan emas, ta’sir bilan o‘lchanishini his qildirish.*

Qoidalar:

O‘qituvchi: Hozir qiziq o‘yin o‘ynaymiz. Tasavvur qiling, sizda faqat bitta imkoniyat bor. Bugun atrofingizdagi insonlar uchun faqat bitta yaxshilik qilishga ruxsat beriladi. Quyidagilardan birini tanlash kerak.

O‘qituvchi doskaga variantlarni yozadi:

1. Do‘stga yordam berish;
2. Begona insonga yordam berish;
3. Kimnidir himoya qilish;
4. Kimningdir kayfiyatini ko‘tarish;
5. Ko‘chadagi notanish muhtojga moddiy yordam berish;
6. Kechirim so‘rash / kechirish;

Auksion mexanizmi

O‘qituvchi: Endi har biringiz ichingizda tanlaysiz:

Kim o‘z variantini “eng kuchli yaxshilik” deb himoya qila oladi?

O‘quvchilar bittadan doskaga chiqadi va asoslaydi.

Masalan:

- “Kayfiyatni ko‘tarish eng muhim, chunki...”
- “Bilim bilan yordam kuchliroq, chunki...”
- “Kechirim eng qiyin, lekin...”

O‘qituvchi: Qaranglar, sinfda har xil fikrlar paydo bo‘ldi. Demak, yaxshilikning yagona shakli yo‘q. U turlicha bo‘lishi mumkin. Ammo ularning barchasini birlashtiradigan jihat bor: har biri kimningdir hayotiga ijobiy ta‘sir qiladi. Har biri zanjirni davom ettirishi mumkin.

Agar hammamiz faqat kichik, oddiy yaxshiliklarni tanlasak ham, atrof, jamiyat o‘zgaradi.

YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

O‘qituvchi: Bugun biz hayotda juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan mavzu haqida gaplashdik.

Qiziq tomoni shundaki, insonlar ko‘pincha qilgan yaxshiligini tez unutadi. Lekin yaxshilikni olgan odam uni juda uzoq eslab yuradi.

Demak, siz qilgan oddiy harakat kim uchundir juda muhim bo‘lishi mumkin.

Keling, bugungi darsni kichik chellenj bilan yakunlaymiz.

Ertaga kechgacha kamida bitta yaxshilik qilishga harakat qiling. Katta ish bo‘lishi shart emas. Oddiy xatti-harakatlar qilish mumkin. Masalan, kimnidir qo‘llab-quvvatlash, kimgadir yordam berish, yaxshi muomala qilish, kimningdir kayfiyatini ko‘tarish yoki shunchaki yaqinlarga befarq bo‘lmaslik.

Bu yaxshilikni o‘zingizni majburlab emas, ko‘z-ko‘zlash uchun ham emas, yoki evaziga nimadir kutmay, faqat narigi tomonga yordam berish uchun qilish kerak.

Keyin tahlil qiling: bu yaxshilik kimga qanday ta‘sir qildi?

Pauza.

O‘qituvchi: Yaxshilik – bu faqat harakat emas. Bu kayfiyat. Bu insonlar orasidagi iliqlik.

Keling, hozir shu ruhni his qilish uchun motivatsiya beruvchi qo‘shiq tinglaymiz va birgalikda ijro etamiz.

Vizual kontent

“Yaxshi bola” – Karaoke

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/416

O‘qituvchi: Unutmang. Dunyoni o‘zgartirish har doim katta ishlar bilan boshlanmaydi. Ba‘zan oddiy, kichik, lekin vaqtida qilingan yaxshilik ham yetarli bo‘ladi. Ehtimol, kimningdir hayotida eng muhim inson aynan siz bo‘lishingiz mumkin.

Chellenj esingizda bo‘lsin. Albatta, uni qiling.

Omad tilayman, aziz o‘quvchilar.